

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim bo‘yicha qisqacha MA’LUMOT

Tarixdan ma’lumki, insoniyat tamaddunida yurtimiz ilm-fan va ma’rifat maskanlaridan biri sifatida o‘rin egallagan. Amir Temurdek adolatli hukmdorlar, Alisher Navoiydek oqil vazirlar Bahodir Yalangto‘shbiy kabi jonkuyar davlat amaldorlarining homiyligi oqilona siyosati ilm-fanning yuqori darajada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Buni bugungi kunda ham ko‘rishimiz mumkin. Yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni** bunga misol bo‘ladi.

Qonunda yurtimiz ta’limining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Masalan, qonunning 7-moddasi Ta’lim turlari deb nomlanib, unda maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiyo‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’lim; oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’lim singari uzviy ta’lim olishni ta’minlovchi turlarga tasniflab bergan.

Shuningdek, yurtimizda ta’lim olish shakllari ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish, inklyuziv ta’lim, eksternat tartibidagi ta’lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlashdan iborat. Bu ta’lim olish shakllari Qonunning 15-moddasida aniq belgilab berilgan.

Ta’lim to‘g‘risidagi qonuning 16-moddasida Masofaviy ta’lim masalasiga oydilik kiritilgan. Unga ko‘ra, masofaviy ta’lim o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mamlakat rivojida sifatli kadrlarning tutgan o‘rni beqiyos. Sifatli va hamon talabiga mos kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim tizmi muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Shu sababli, Qonunning 11-moddasida oliy ta’lim va uninig oldiga qo‘yilgan vazifalar belgilab berilgan. Unga ko‘ra oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalgalashiriladi. Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich professional ta’lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega. Bundan tashqari, fuqarolar shartnomasi asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagagi 489-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi to‘g‘risida nizom muvofiq bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qish davomiyligi muddatlarini belgilashda oliy ta’lim tashkilotlariga uslubiy ko‘mak beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagagi 157-son “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori belgilangan Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to‘g‘risida nizomning 18-bandida “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti Xalqaro tasniflagichning 6-darajasidagi (bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan) va 7-darajasidagi (magistratura yoki unga tenglashtirilgan) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqishi belgilangan.

Bakalavriat ta’lim bosqichi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim natijalariga, magistratura ta’lim bosqichi bakalavriat ta’lim natijalariga asoslanadi. Bakalavriat va magistratura ta’lim bosqichlari tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi va 7-malaka darajasiga muvofiqlashtiriladi.”

Qonunda Oliy ta’lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’lim hisoblanadi.

Bakalavriat – ko‘p mamlakatlarda oliy ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zbekistonda bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta’lim turi bo‘lib, o‘qish muddati kamida 3 yil Bakalavrlik dasturi tugallangandan so‘ng, bitiruvchilarga bakalavr darajasi berilib davlat attestatsiyasi yakunlariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom topshiriladi.

Magistratura – tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’lim turi hisoblanadi. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining ro‘yxati ta’lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizdagi ta’lim tizmining uzviy rivolanish ildizlari qadim tarixga borib taqaladi.

Ta’lim sohasinig rivoji yo‘lida qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari orasida ta’lim to‘g‘risidagi qonun o‘zining ta’limning barcha soha va jihatlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Ўзбекистон Республикасида олий таълим бўйича қисқача МАЪЛУМОТ

Тарихдан маълумки, инсоният тамаддунида юртимиз илм-фан ва маърифт масканларидан бири сифатида ўрин эгаллаган. Амир Темурдек адолатли ҳукмдорлар, Алишер Навоийдек оқил вазирлар Баҳодир Ялангтўшбий каби жонкуяр давлат амалдорларининг ҳомийлиги оқилона сиёсати илм-фаннынг юқори даражада ривожланишида муҳим аҳамият касб этган. Буни бугунги кунда ҳам кўришимиз мумкин. Юртбошимиз ташаббуси билан қабул қилинган янги таҳрирдаги **Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни** бунга мисол бўлади.

Қонунда юртимиз таълимининг ҳуқуқий асослари белгилаб берилган. Масалан, қонуннинг 7-моддаси Таълим турлари деб номланиб, унда мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта ва ўрта маҳсус таълим, профессионал таълим; олий таълим, олий таълимдан кейинги таълим, кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, мактабдан ташқари таълим сингари узвий таълим олишни таъминловчи турларга таснифлаб берган.

Шунингдек, юртимизда таълим олиш шакллари ишлаб чиқаришдан ажralган ҳолда таълим олиш (қундузги), ишлаб чиқаришдан ажralмаган ҳолда таълим олиш (сиртқи, кечки, масофавий), дуал таълим, оиласда таълим олиш ва мустақил таълим олиш, катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш, инклузив таълим, экстернат тартибидаги таълим, мудофаа, хавфсизлик ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлашдан иборат. Бу таълим олиш шакллари Қонуннинг 15-моддасида аниқ белгилаб берилган.

Таълим тўғрисидаги қонуннинг 16-моддасида Масофавий таълим масаласига ойдилик киритилган. Унга кўра, масофавий таълим ўкув режалари ва ўкув дастурларига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб

олишга қаратилган. Масофавий таълимни ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

Мамлакат ривожида сифатли кадрларнинг тутган ўрни бекиёс. Сифатли ва ҳамон талабига мос кадрларни тайёрлашда олий таълим тизми муҳим бўғин ҳисобланади. Шу сабабли, Қонуннинг 11-моддасида олий таълим ва унинг олдига қўйилган вазифалар белгилаб берилган. Унга кўра олий таълим бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрланишини таъминлайди. Шунингдек, олий маълумотли кадрларни тайёрлаш олий таълим ташкилотларида (университетлар, академиялар, институтлар, олий мактаблар) амалга оширилади. Умумий ўрта (ўн бир йиллик таълим), ўрта маҳсус (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик ўрта маҳсус таълим), бошланғич профессионал таълим (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик бошланғич профессионал таълим) олган шахслар, шунингдек ушбу Қонун кучга киргунига қадар ўрта маҳсус, касб-хунар таълими (тўққиз йиллик умумий ўрта ва уч йиллик ўрта маҳсус, касб-хунар таълими) олган шахслар олий маълумот олиш хуқуқига эга. Бундан ташқари, фуқаролар шартнома асосида иккинчи ва ундан кейинги олий маълумотни олиш хуқуқига эга.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 8 авгуустдаги 489-сон «Ўзбекистон Республикаси Олий талим, фан ва инновациялар вазирлиги фаолиятини тартибга солиш соҳасидаги айrim норматив-хуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тўғрисида низом мувофиқ бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича ўқиш давомийлиги муддатларини белгилашда олий таълим ташкилотларига услубий кўмак беради.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 27 мартағи 157-сон «Давлат таълим стандартлари ва давлат таълим талабларини ишлаб чиқиши ҳамда жорий этиш тартибини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги қарори белгиланган Давлат таълим стандартлари ва

давлат таълим талабларини ишлаб чиқиш ҳамда жорий этиш тартиби тўғрисида низомнинг 18-бандида «Олий таълимнинг давлат таълим стандарти Халқаро таснифлагичнинг 6-даражасидаги (бакалавриат ёки унга тенглаштирилган) ва 7-даражасидаги (магистратура ёки унга тенглаштирилган) белгиланган талабларга мувофиқ ишлаб чиқиши белгиланган.

Бакалавриат таълим босқичи умумий ўрта, ўрта маҳсус ва бошланғич профессионал таълим натижаларига, магистратура таълим босқичи бакалавриат таълим натижаларига асосланади. Бакалавриат ва магистратура таълим босқичлари тегишлича Ўзбекистон Республикаси Миллий малака рамкасининг 6-малака даражаси ва 7-малака даражасига мувофиқлаштирилади.»

Қонунда Олий таълим икки босқичга – бакалавриат ва магистратура босқичига эга эканлиги кўрсатиб ўтилган. Бакалавриат олий таълим йўналишларидан бири бўйича чукурлаштирилган билим, малака ва кўникмалар берадиган, ўқиш давомийлиги камидан уч йил бўлган таянч олий таълим ҳисобланади.

Бакалавриат – кўп мамлакатларда олий таълимнинг дастлабки босқичи. Ўзбекистонда бакалавриат мутахассисликлар йўналиши бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган таянч олий таълим тури бўлиб, ўқиш муддати камидан 3 йил Бакалаврлик дастури тугаллангандан сўнг, битирувчиларга бакалавр даражаси берилиб давлат аттестацияси якунларига кўра давлат томонидан тасдиқланган намунадаги олий маълумот тўғрисидаги диплом топширилади.

Магистратура – тегишли бакалавриат негизидаги аниқ мутахассислик бўйича ўқиш давомийлиги камидан бир йил бўлган олий таълим тури ҳисобланади. Магистратура мутахассисликларининг ва уларга мувофиқ бўлган бакалавриат таълим йўналишларининг рўйхати таълим соҳасидаги ваколатли республика ижро этувчи ҳокимият органи томонидан белгиланади.

Хулоса қилиб айтганда, юртимиздаги таълим тизмининг узвий риволаниш илдизлари қадим тарихга бориб тақалади.

Таълим соҳасиниг ривожи йўлида қабул қилинган қонун ва қонуности ҳужжатлари орасида таълим тўғрисидаги қонун ўзининг таълимнинг барча соҳа ва жиҳатларини қамраб олганлиги билан ажралиб туради.